

**“INVEST FINANCE BANK” AKSIYADORLIK JAMIYATI
AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG‘ILISHINING
73-SONLI BAYONNOMASI**

Toshkent shahri

27 noyabr 2025 yil

To‘liq nomi: “Invest Finance Bank” aksiyadorlik jamiyati

Qisqartirilgan nomi: “InFinBank” AJ

Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, T. Shevchenko ko‘chasi, 1-uy

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi turi: navbatdan tashqari umumiy yig‘ilish

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini o‘tkazilish shakli:

Tegishli materiallarni Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini o‘tkazilishidan oldin aksiyadorlarga yuborish. Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish va ovozga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig‘ilishi Bank Kuzatuv kengashining 2025 yil 5 noyabrdagi 110-sonli Bayonnomasi qaroriga asosan chaqirilgan.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi o‘tkazilish sanasi: 2025 yil 27 noyabr

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi o‘tkazilish joyi:

Toshkent shahri, Mirobod tumani, T. Shevchenko ko‘chasi, 1-uy

Umumiy yig‘ilish boshlanish vaqti: soat 15:00

Umumiy yig‘ilish tugash vaqti: soat 16:00

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risida aksiyadorlarga ma‘lumot yetkazish:

O‘zbekiston Respublikasi Istiqlobli loyihalar milliy agentligi Korporativ axborot yagonal portali (openinfo.uz) hamda bankning rasmiy veb-saytida e‘lon qilingan hamda 2025 yil 5 noyabr sanasiga shakllantirilgan Bank aksiyadorlari reestri asosida ularga elektron pochta manziliga bildirishnoma yuborilgan.

Umumiy yig‘ilishda qatnashdilar:

Bank aksiyadorlari	Rekvizitlar/pasport/ID karta ma‘lumotlari	Aksiyadorlar ega bo‘lgan ovozlar soni	Aksiyadorlarning shakllantirilgan Bank ustav kapitalidagi ulushi
Jismoniy shaxslar:		607 371 964	60,10%
Mamatjanov Farhod Faxriddinovich	ID karta AD 8888881, IIV 36015 tomonidan, 30.10.2023-yilda berilgan.	570 990 291	56,50%
Abdusamadov Parviz Maxsudovich	ID karta AE 3331914, IIV 60009 tomonidan, 09.07.2025-yilda berilgan.	363 816 73	3,60%
Yuridik shaxslar:		402 140 862	39,90%

“Prestij Rielt” MChJ QK	Direktor – Yuldashev Iloxam Rustamovich (ID karta AD 5441644, IIV 26296 tomonidan, 16.12.2023-yilda berilgan).	320 205 751	31,77%
“AZIA TRANS TERMINAL” MChJ	Bosh direktor – Kadirov Abdurashid Abduvasitovich (ID karta AD 2771974, IIV 26263 tomonidan, 11.03.2023-yilda berilgan).	81 935 111	8,13%
Hammasi, shu jumladan		1 009 512 826	100,00%

2025-yil 21 noyabr holatiga tuzilgan Aksiyadorlar reestri ma’lumotlariga ko’ra, “InFinBank” AJ aksiyadorlari – ovoz beruvchi aksiyalar egalarida mavjud ovozlar soni 1 009 512 826 ovozni tashkil etadi (bitta aksiya – bitta ovoz).

Umumiy yig’ilishda qatnashayotgan aksiyadorlar – Bank ovoz beruvchi aksiyalari egalari ixtiyorida ovozlarining umumiy soni 1 009 512 826 tani yoki Bank ovoz beruvchi aksiyalarining 100,0%ini tashkil etadi. **Yig’ilish kvorumi – 100,00%.**

Bank Kuzatuv kengashi raisi **Burxanov Bobir Nodirxanovich** ma’lum qildiki, “InFinBank” AJ Ustaviga ko’ra, ushbu navbatdan tashqari Aksiyadorlar umumiy yig’ilishi huquqiy kuchga ega va mazkur umumiy yig’ilish natijalariga ko’ra qabul qilingan barcha qarorlar haqiqiy deb hisoblanadi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig’ilishini o’tkazish uchun yig’ilish Raisi etib Bank Kuzatuv kengashi raisi **Burxanov Bobir Nodirxanovich**, yig’ilish Kotibi etib **Raxmatullayeva Lola Utkirovnani**, yig’ilish Rayosati tarkibiga Bank aksiyadori **Yuldashev Iloxam Rustamovich** va **Kadirov Abdurashid Abduvasitovichni** saylash to’g’risida taklif kiritildi, ushbu takliflar bir ovozdan qabul qilindi.

Yig’ilish Raisi:	Bank Kuzatuv kengashi raisi Burxanov Bobir Nodirxanovich
Yig’ilish Rayosati:	Bank aksiyadorlari Yuldashev Iloxam Rustamovich Kadirov Abdurashid Abduvasitovich
Yig’ilish Kotibi:	Korporativ maslahatchi Rahmatullayeva Lola Utkirovna
Taklif etilganlar:	Bank Kuzatuv kengashi a’zolari Bank Boshqaruvi a’zolari

KUN TARTIBI:

1. Bank Sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash;
2. Aksiyadorlar navbatdan tashqari umumiy yig’ilishining reglamentini tasdiqlash;
3. Bank boshqaruv raisining vakolatini muddatidan ilgari tugatish;
4. Bank boshqaruv raisini saylash;
5. Bankning 2026–2028 yillarga mo’ljallangan Rivojlanish strategiyasini tasdiqlash;
6. Bankning joylashgan yerini (pochta manzili) o’zgartirishni tasdiqlash;
7. Bank Ustaviga kiritilgan o’zgarishlarni tasdiqlash;

8. Bankning ichki me’yoriy hujjatlariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish va tasdiqlash.

Ma’lumotlarni taqdim etish, Kun tartibi bo’yicha taklif va sharhlarni yig’ish, shuningdek, Aksiyadorlar umumiy yig’ilishini o’tkazishni tashkil etish yig’ilish Rayosati va Kotibi tomonidan ta’minlandi.

Aksiyadorlarni ro’yxatga olish, ovoz berish byulletenlarini tarqatish, shuningdek ovozlarni sanab chiqish Sanoq komissiyasi tomonidan amalga oshirildi.

Barcha tashkiliy masalalar ko’rib chiqilganidan so’ng, kun tartibidagi masalalar muhokamasiga o’tildi.

1-masala. Bank Sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash.

Bank Sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash yuzasidan Yig’ilish raisi B.N. Burxanov so’zga chiqib, O’zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi Qonunining 66-moddasiga ko’ra, ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning umumiy yig’ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro’yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan Sanoq komissiyasi tuzilib, uning a’zolari soni va shaxsiy tarkibi aksiyadorlarning umumiy yig’ilishi tomonidan tasdiqlanishini kerakligini ma’lum qildi.

Shuningdek, 25.06.2025 yildagi 71-sonli aksiyadorlarning umumiy yig’ilishining qaroriga asosan Sanoq komissiyasining tarkibi uch kishidan iborat quyidagi tarkibda tasdiqlangan:

1. Atamirzayev Jahonbek Mahmudjonovich;
2. Musaev Xafiz Agzamovich;
3. Alimov Bahodir Allabergenovich.

Hozirgi kunga kelib, Alimov Bahodir Allabergenovich bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishi munosabati bilan Sanoq komissiyasining tarkibini qayta ko’rib chiqish ehtiyoji borligi ta’kidlab o’tildi.

Shunga asosan, Sanoq komissiyasining tarkibiga uch kishidan iborat quyidagi nomzodlarni kiritish taklif etilayotganligi ma’lum qilindi:

1. Atamirzayev Jahonbek Mahmudjonovich;
2. Musaev Xafiz Agzamovich;
3. Rejamatov Alisher Utkirovich.

Muhokamadan so’ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo’yildi:

1. Sanoq komissiyasining tarkibiga, aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig’ilishiga qadar, quyidagi nomzodlar tasdiqlansin:

- 1. Atamirzayev Jahonbek Mahmudjonovich;*
- 2. Musaev Xafiz Agzamovich;*
- 3. Rejamatov Alisher Utkirovich.*

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 1 009 512 826 ta ovoz (100%),

Qarshi – yo’q,

Betaraf – yo’q.

2-masala. Aksiyadorlar umumiy yig’ilishining reglamentini tasdiqlash yuzasidan Yig’ilish raisi B.N. Burxanov so’zga chiqib, yig’ilish ishtirokchilarini umumiy yig’ilishni o’tkazish reglamenti bilan tanishtirdi va uni quyidagicha tasdiqlash taklifini kiritdi:

- asosiy masalalar va ma’ruzalar uchun – 15 daqiqagacha;

- qo‘shimcha ma‘ruzalar, muxokama va savol-javoblar uchun – 5 daqiqagacha;
- ovoz berish natijalarini sanab chiqish uchun tanaffus – 10 daqiqa.

Muxokamadan so‘ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo‘yildi:

2. *“InFinBank” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamenti qo‘yidagicha tasdiqlansin:*

- asosiy masalalar bo‘yicha ma‘ruzachilarning chiqishlariga – 15 daqiqagacha;
- qo‘shimcha chiqishlar, e‘tiroz va muzokaralar uchun – 5 daqiqagacha;
- ovoz berish yakunlarini hisoblash uchun tanaffus – 10 daqiqa.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 1 009 512 826 ta ovoz (100%),

Qarshi – yo‘q,

Betaraf – yo‘q.

3-masala. Bank Boshqaruv raisining vakolatini muddatidan ilgari tugatish. Kun tartibidagi uchinchi masala bo‘yicha Yig‘ilish raisi B.N. Burxanov so‘zga chiqib, Bankning Boshqaruv raisi Numanova Olga Leonidovna tomonidan 2025 yil 5 noyabrda taraflarning kelishuviga ko‘ra mehnat shartnomasini 2025 yil 28 noyabrdan bekor qilish va vakolatini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida ariza kiritilganligini va uning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilishi lozimligini ma‘lum qildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunining 59-moddasiga asosan jamiyatning ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, boshqaruv raisi Numanova Olga Leonidovnaning vakolatini muddatidan ilgari tugatish masalasi bo‘yicha ovoz berishni hamda ovoz berish natijalariga ko‘ra, tegishli qarorlar qabul qilishni taklif qildi.

Muxokamadan so‘ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo‘yildi:

3. *“InFinBank” AJ Boshqaruv raisi Numanova Olga Leonidovnaning vakolati muddatidan ilgari 2025 yil 28 noyabrdan tugatilsin.*

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 1 009 512 826 ta ovoz (100%),

Qarshi – yo‘q,

Betaraf – yo‘q.

4-masala. Bank Boshqaruv raisini saylash.

Kun tartibidagi to‘rtinchi masala bo‘yicha Yig‘ilish raisi B.N. Burxanov so‘zga chiqib, Bank boshqaruv raisligiga saylash uchun Bank Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari Djurayev Baxtiyorjon Samadovich nomzodini ko‘rib chiqishni tavsiya qildi.

Djurayev Baxtiyorjon Samadovich, Bank sohasida 2001 yildan ishlab kelishini va bank sohasida katta tajribaga ega ekanligi, “InFinBank” AJdagi mehnat faoliyatini 2015 yildan boshlaganligi, rahbarlik lavozimlarda 12 yildan ortiq ishlab kelishini va hozirgi paytda Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari lavozimida ishlab kelayotganligini ta‘kidlab o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunining 59-moddasiga asosan jamiyatning ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiradi. Shuningdek, “Bank faoliyatiga ruhsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq Bank, boshqaruv a‘zosi hamda

muhim ahamiyatga ega xodimlarning boshqa lavozimga o‘tkazilishi va (yoki) ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishi natijasida bo‘shab qolgan lavozimlarga mazkur Nizom talablariga muvofiq keluvchi nomzodlarni 30 kun ichida Markaziy bankka kelishib olish uchun taqdim etishi lozim.

Muxokama davomida, aksiyadorlar tomonidan Bank Boshqaruv raisligiga taklif etilayotgan Djurayev Baxtiyorjon Samadovichga 2025 yil 1 dekabrda boshlab Boshqaruv raisi vazifasini, uning nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishib olinguniga qadar bajarishni vaqtincha yuklash va Djurayev Baxtiyorjon Samadovichni Bank Boshqaruv raisligiga tayinlash taklif etildi.

Raislik qiluvchi kun tartibidagi ushbu masala bo‘yicha ovoz berishni hamda ovoz berish natijalariga ko‘ra, tegishli qarorlar qabul qilishni taklif qildi.

Muxokamadan so‘ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo‘yildi:

4.1. Djurayev Baxtiyorjon Samadovich 2025 yil 1 dekabrda “InFinBank” AJ Boshqaruv raisi lavozimiga tayinlansin, Djurayev Baxtiyorjon Samadovichni nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishib olinganidan so‘ng, Boshqaruv raisi lavozimida majburiyatlarini bajarishga kirishsin.

4.2. Djurayev Baxtiyorjon Samadovich nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishib olingunga qadar, “InFinBank” AJ Boshqaruv raisining vazifalarini vaqtinchalik bajaruvchi etib tayinlansin.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 1 009 512 826 ta ovoz (100%),

Qarshi – yo‘q,

Betaraf – yo‘q.

5-masala. Bankning 2026–2028 yillarga mo‘ljallangan Rivojlanish strategiyasini tasdiqlash.

Kun tartibining beshinchi masalasi yuzasidan Yig‘ilish raisi B.N. Burxanov so‘zga chiqib, “Invest Finance Bank” Aksiyadorlik jamiyatining 2026–2028 yillarga mo‘ljallangan Rivojlanish strategiyasi loyihasini taqdim etdi.

B.N. Burxanov, mazkur Strategiyaning ishlab chiqilishi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankinging me‘yoriy hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshirilganligini ta’kidlab o‘tdi.

Strategiyani tayyorlash jarayonida Bank faoliyatining joriy holati, bozor kon’yunkturasi, raqobat muhiti va makroiqtisodiy tendensiyalar tahlili o‘tkazildi, shuningdek, ichki salohiyat va resurs imkoniyatlari baholangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunining 59-moddasiga va “Invest Finance Bank” Aksiyadorlik jamiyati Ustavining 11.7.-bandiga asosan jamiyatning yillik hisobotini va yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o‘rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash tugatish Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiradi.

Raislik qiluvchi kun tartibidagi ushbu masala bo‘yicha ovoz berishni hamda ovoz berish natijalariga ko‘ra, tegishli qarorlar qabul qilishni taklif qildi.

Muxokamadan so‘ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo‘yildi:

5. *“Invest Finance Bank” Aksiyadorlik jamiyatining 2026–2028 yillarga mo‘ljallangan Rivojlanish strategiyasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.*

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 1 009 512 826 ta ovoz (100%),

Qarshi – yo‘q,

Betaraf – yo‘q.

6-masala. Bankning joylashgan yerini (pochta manzili) o‘zgartirishni tasdiqlash. Kun tartibidagi oltinchi masala bo‘yicha Yig‘ilish raisi B.N. Burxanov so‘zga chiqib, u bugungi kunda Bankka tegishli bo‘lgan: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 17-b uy manzilida joylashgan bino to‘liq qurib bitkazilgani va Bank faoliyatini amalga oshirishga tayyor ekanligi, shuningdek, ushbu bino barcha texnik talablarga javob berishini tasdiqlovchi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hududiy boshqarmasi tomonidan texnik xulosa olinganini, shu munosabat bilan Bankning joylashgan yeri (pochta manzilini) o‘zgartirish zarurati mavjudligini ta’kidladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning 30.06.2020 yildagi 3252-sonli “Bank faoliyatiga ruhsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi Nizomiga asosan bankning joylashgan yerini (pochta manzilini) o‘zgartirish to‘g‘risida bankning vakolatli boshqaruv organining asoslangan qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Yig‘ilish raisi B.N. Burxanov Bank aksiyadorlariga Bankning joylashgan yerini (pochta manzilini) 100029, Toshkent shahar, Mirobod tumani, T. Shevchenko kuchasi, 1-uy manzilidan, 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 17-b uy manziliga o‘zgartirishni ko‘rib chiqishni va ovozga qo‘yishni taklif qildi.

Shundan so‘ng, Raislik qiluvchi kun tartibidagi ushbu masala bo‘yicha ovoz berishni hamda ovoz berish natijalariga ko‘ra, tegishli qarorlar qabul qilishni taklif qildi.

Muxokamadan so‘ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo‘yildi:

6. *“InFinBank” AJ joylashgan yerini (pochta manzilini) Toshkent shahar, 100029, Toshkent shahar, Mirobod tumani, T. Shevchenko kuchasi, 1-uy manzilidan, 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 17-b uy manziliga o‘zgartirish ma‘qullansin.*

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 1 009 512 826 ta ovoz (100%),

Qarshi – yo‘q,

Betaraf – yo‘q.

7-masala. Bank Ustaviga kiritilgan o‘zgartirishlarni tasdiqlash. Kun tartibidagi yettinchi masala bo‘yicha Yig‘ilish raisi B.N. Burxanov so‘zga chiqib, Bank Ustaviga Bank joylashgan yeri (pochta manzili) o‘zgarishi bilan bog‘liq o‘zgartirish kiritish lozim ekanini va yig‘ilish ishtirokchilarini “InFinBank” AJ Ustaviga kiritilgan o‘zgartirishlar matni bilan 2-ilovaga muvofiq tanishtirdi.

Bankning Ustaviga kiritilgan o‘zgartirishlar amaldagi qonunchilik asosida O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga kiritilgan o‘zgartirishlar, O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining yangi tahriri, hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2020 yil 30 iyunda 3254-son bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi Nizom talablariga muvofiq lashtirilgan.

Raislik qiluvchi kun tartibidagi ushbu masala bo‘yicha ovoz berishni hamda ovoz berish natijalariga ko‘ra, tegishli qarorlar qabul qilishni taklif qildi.

Muxokamadan so‘ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo‘yildi:

7“Invest Finance Bank” Aksiyadorlik jamiyati Ustaviga kiritilgan o‘zgartirishlar 2- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 1 009 512 826 ta ovoz (100%),

Qarshi – yo‘q,

Betaraf – yo‘q.

8-masala. Bankning ichki me‘yoriy hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish va tasdiqlash. Kun tartibidagi sakkizinchi masala bo‘yicha Kuzatuv kengash a‘zosi Z.S. Abdullaev so‘zga chiqib, majlis ishtirokchilariga Bank faoliyatining asosiy tamoyillarini belgilovchi va zaruriy yo‘nalishlarini muvofiqlashtiruvchi “InFinBank” AJ Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi Nizom va “InFinBank” AJ Boshqaruvi to‘g‘risida”gi Nizomlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish lozimligi to‘g‘risida ma‘lumot berib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2000 yil 05 aprelda 916-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qo‘idalari qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomga asosan, Tijorat banklarining ichki qo‘idalari banklarda samarali ichki nazorat tizimini yaratish, bank faoliyatiga xos bo‘lgan tavakkalchiliklarni boshqarish (tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish, nazorat qilish, kamaytirish va ular haqida xabardor etish), xavfsiz va sog‘lom bank faoliyatini yuritishni, bank qonunchiligiga to‘liq rioya etilishini ta‘minlash, bank faoliyatini boshqarish va bank operatsiyalarini amalga oshirishni qulaylashtirish maqsadida ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda Bank Kuzatuv kengashining tavsiyalariga tayanib, bankni strategik boshqarishda uning samaradorligini oshirish va zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini takomillashtirish maqsadida, bankning ichki me‘yoriy hujjatlari bo‘lgan tegishli nizomlarni, hamda kiritiladigan o‘zgartirishlarni aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida tasdiqlash zarurligini ma‘lum qildi.

Bankning ichki nizomlariga kiritilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar amaldagi qonunchilik asosida O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga kiritilgan o‘zgartirishlar, O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining yangi tahriri, hamda “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi Nizom talablariga muvofiqlashtirilgan.

Shundan so‘ng, yig‘ilishdagi aksiyadorlarga Nizomlarni loyihalari bilan ilovalarga muvofiq tanishib chiqishni taklif etildi.

Aksiyadorlar Bank Ichki me‘yoriy hujjati bo‘lgan nizomlar loyihasi bilan tanishib chiqqach, yig‘ilish raisi kun tartibidagi ushbu masala yuzasidan ovoz berishni taklif qildi.

Muxokamadan so‘ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo‘yildi:

8.1. *“InFinBank” AJ Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi Nizomiga kiritilgan o‘zgartirishlar 3- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.*

8.2. *“InFinBank” AJ Boshqaruvi to‘g‘risida”gi Nizomiga kiritilgan o‘zgartirishlar 4- ilovaga muvofiq tasdiqlansin..*

Ovoz berish natijalari:

Rozilar – 1 009 512 826 ta ovoz (100%),

Qarshi – yo‘q,

Betaraf – yo‘q.

QABUL QILINGAN QARORLAR:

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha:

1. Sanoq komissiyasining tarkibiga, aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishigacha, quyidagi nomzodlar tasdiqlansin:

1. Atamirzayev Jaxonbek Mahmudjonovich;
2. Musayev Xafiz Agzamovich;
3. Rejamatov Alisher Utkirovich.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha:

2. “InFinBank” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamenti qo'yidagicha tasdiqlansin:

- asosiy masalalar bo'yicha ma'ruzachilarning chiqishlariga – 15 daqiqagacha;
- qo'shimcha chiqishlar, e'tiroz va muzokaralar uchun – 5 daqiqagacha;
- ovoz berish yakunlarini hisoblash uchun tanaffus – 10 daqiqa.

Kun tartibidagi uchinchi masala bo'yicha:

3. “InFinBank” AJ Boshqaruv raisi Numanova Olga Leonidovnaning vakolati muddatidan ilgari 2025 yil 28 noyabrdan tugatilsin.

Kun tartibidagi to'rtinchi masala bo'yicha:

4.1. Djurayev Baxtiyorjon Samadovich 2025 yil 1 dekabrda “InFinBank” AJ Boshqaruv raisi lavozimiga tayinlansin, Djurayev Baxtiyorjon Samadovichni nomzodi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishib olinganidan so'ng, Boshqaruv raisi lavozimida majburiyatlarini bajarishga kirishsin;

4.2. Djurayev Baxtiyorjon Samadovich nomzodi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishib olingunga qadar, “InFinBank” AJ Boshqaruv raisining vazifalarini vaqtincha bajaruvchi etib tayinlansin.

Kun tartibidagi beshinchi masala bo'yicha:

5. “Invest Finance Bank” Aksiyadorlik jamiyatining 2026–2028 yillarga mo'ljallangan Rivojlanish strategiyasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi oltinchi masala bo'yicha:

6. “InFinBank” AJ joylashgan yerini (pochta manzilini) Toshkent shahar, 100029, Toshkent shahar, Mirobod tumani, T. Shevchenko kuchasi, 1-uy manzildan, 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 17-b uy manziliga o'zgartirish ma'qullansin.

Kun tartibidagi yettinchi masala bo'yicha:

7. “Invest Finance Bank” Aksiyadorlik jamiyati Ustaviga kiritilgan o'zgartirishlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi sakkizinchi masala bo'yicha:

8.1. “InFinBank” AJ Kuzatuv kengashi to'g'risida”gi Nizomiga kiritilgan o'zgartirishlar 3- ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

8.2. “InFinBank” AJ Boshqaruvi to'g'risida”gi Nizomiga kiritilgan o'zgartirishlar 4- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ushbu bilan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'z ishini yakunladi va yopiq deb e'lon qilindi.

Bayonnoma tuzilgan sana “28” 11 2025 yil.

Yig'ilish raisi

~~B.N. Burxanov~~

Yig'ilish kotibi



L.U. Raxmatullayeva